**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**
**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA- QURILISH INSTITUTI**

**“LANDSHAFT DIZAYNI VA INTERYER” KAFEDRAS**

Institut Ilmiy-uslubiy
kengashi tomonidan ko’rib chiqildi
va chop etishga ruxsat berildi.
Ro’yxatga olindi: _____
Bayonnoma № _____
“___”________2015 yil.

“TASDIQLAYMAN”
Institutning ilmiy-uslubiy
kengashi raisi,
tex.fan.nom., dots. A.T.Qo’ldashev
_____________________
“___” ___________2015 yil.

# “LOYIHALASH” FANIDAN “STILIZATSIYA”

mavzusidagi kurs ishini bajarish uchun

# USLUBIY KO'RSATMA

5150900 - “Dizayn (turlari bo'yicha)”, 5340100 - “Arxitektura (turlari bo'yicha)” va 5341000-“Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish” ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

SAMARQAND-2015

Ushbu uslubiy ko'rsatma Dizayn va Arxitektura yo'nalishlarining boshlang'ich bosqich talabalari uchun arxitekturaviy yodgorliklar perspektivasini yasash bo'yicha beriladigan kurs ishini bajarishga mo'ljallangan.

Uslubiy ko'rsatmaning l-qismida perspektiva yasash modeli, geometrik forma va nisbatan sodda arxitekturaviy formalarning perspektivasini Arxitektorlar usulida yasash qoida va usullari ko'rsatilgan.

Ko'rsatmaning ll-qismi esa nisbatan murakkab tarixiy obida - Somoniylar maqbarasining bosqichma-bosqich perspektivasini yasaishga bag'ishlangan.

Uslubiy ko’rsatma oxirida arxitekturaviy bino va komplekslarning perspektiv ko'rinishlari, talabalar bajargan ishlardan namunalar va mustaqil mashqlar bajarish uchun turli murakkablikdagi obyektlar ortoganal proyeksiyalari ilova qilib berilgan.

Uslubiy ko’rsatmadan nafaqat talabalar, shuningdek barcha xohlovchilar foydalanishlari mumkin.

**Tuzuvchilar:**

**Tugizov Shukrullo Xudayarovich -**
“Landshaft dizayni va interyer” kafedrasi katta o'qituvchisi;
**Narkulov Olmosjon Oltinbekovich -**
“Landshaft dizayni va interyer” kafedrasi katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**MUXAMADIYEV Eson Muxamadiyevich -**
“Landshaft dizayni va interyer” kafedrasi professori;
**VOHIDOV Bahodir-**
“Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” kafedrasi dotsenti

Uslubiy ko'rsatma “Landshaft dizayni va interyer” kafedrasi (23 oktyabr 2014 yil, 3-sonli bayonnoma) va SamDAQI Arxitektura fakultetining ilmiy-uslubiy kengashida (25 oktyabr 2014 yil, 2-sonli bayonnoma) ko'rib chiqilgan va ma’qullangan

Chiqish belgilari: SamDAQI. FormatA4. -son buyurtma. Adadi . Hajmi 6,0 b.t

# KIRISH

***Topshiriqni bajarishdan maqsad:***

Talabalarni tabiat ob'yektlarini mustaqil o'rganish va tahlil qila olish, ularning tasvirini ketma-ketlikda bajara olish hamda dizayn sohalarida stilizatsiya qilingan tasvirlarni o'z o'rnida qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

***Topshiriq vazifalari:***

-tabiyat ob'yektlarini bosqichma-bosqich tasvirlashni o'rganish;

- tabiyat ob'yektlarini stilizatsiyalash va uni bajarish texnalogiyasini o'zlashtirish;

- tabiyat ob'yektlarini rangli, grafik (oq-qora, shtrixli, nuqtali) tasvirlay olishni o'rganish;

-talabada o'z uslubini yaratish ko'nikmasini shaklantirish sanoat buyumlari, reklama yozuvlari, farma belgilari emblem, logotiplarni yaratishda zarur bo'ladigan emblemalarni ishlab chiqish va o'z o'rnida qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

***STILIZATSIYA haqida umumiy tushuncha.***

Tabiat obyektlari ya'ni  o'simliklarni hayvonot dunyosi – jonivorlar parandalar tabiiy ko'rinishidan ancha coddalashtirilib, eng ixcham ko'rinishlarda tasvirlashga stilizatsiyalash deyiladi. Boshqacha qilib aytganda stilizatsiya-bu tabiiy shaklarni qayta ishlash demakdir. Atrof muhit, ya'ni stilizatsiyalash yo'llarini bilish, undan samarali foydalana olishni puxta o'zlashtirishni sanoat dizayni, reklama dizaynida, firma belgilarini yaratishda, tasviriy va amaliy san'atning barcha turlarida juda qo'l keladi.



Ishni ob'yektni o'rganish, naturadan qoralamalar (zarisovkalar) chizish bilan boshlash zarur. Tabiatni diqqat bilan kuzatish, tabiatdagi obrazlarni payqab olish

va toppish, ovozlarni eshita olish ham katta ahamiyat kasb etadi. So‘ngra stilizatsiyani qidirish (izlash) jarayoniga o‘tiladi. Bunda tasavvur qilish, ma’lum darajada fantaziya, improvizatsiya qilish iqtidori kerak bo‘ladi. Formalarni dekorativ umumlashtirish, ob’yektlar formasini uning asosiy xususiyatlariga urg‘u bergan holda soddalashtirish yo‘llarini izlab toppish lozim. Ob’yektning eng xarakterli jihatlarini payqab olish ishni bajarishda asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Talab darajasida stilizatsiyalab topilgan o‘simliklar yoki hayvonot olami ob’yektlarining motivlari yorqin va xarakterli ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Biroq ob’yekt formasini o‘zlashtirish, soddalashtirishning ham o‘ziga xos qonun-qoidalari, usullari mavjud. Stilizatsiyani bajarish jarayonida shuni sedan chiqarmaslik kerakki, oxirgi natija – kapalak-kapalak, baliq-baliq, xarakterini berish kerak. Shuningdek ishda eng asosiysi-obrazlikka katta e’tibor berish lozim.

***Tabiyat obyektlarini tahlil qilishda quyidagi:***

- Obyektning harakterli harakatlari
- Obyektning tashqi ko‘rinishdagi, xarakterli formalari
- Obyektning formalarini geometric shaklarga moslash kabi jihatlarga e’tibor qaratish qaratish kerak bo‘ladi.

***Stilizasiya. Tabiiy o’simlik turlarini naqsh elementlari holatida chizish***

Insoniyat rivojlanish jarayonida o’zi uchun zarur bo’lgan jamiki buyumlarni badiiy bezab, takomillashtirib kelgan. Oddiy ro’zg’or buyumlaridan tortib, kiyim-kechak, kitob, bino bezaklari hamma-hammasi naqsh elementlari yordamida bezatiladi. Xalq amaliy san’atida bezak elementlari tabiatda uchrovchi o’simlik dunyosi gul, novda, barg va hayvonlar tasviri eng sodda ko’rinishlarda aks ettiriladi.

Ma’lumki, har bir naqsh namunasi o’ziga xos naqsh elementlarini yig’indisidan iborat. Stilizasiya asosan o’simlik va hayvonot dunyosidan olingan turli shakllar masalan, butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar va shu kabilarning tabiiy shakllarini qayta ishlash demakdir. Bunda tanlangan shaklni naqsh kompozisiyasi tarkibiga qo’shish mumkin bo’lgan bezak shakliga keltiriladi. Buning uchun naqqosh butun bir yaxlit predmetning tashqi ko’rinishlarini bir nechta badiiy chiziqlar yordamida aniq lo’nda qilib tasvirlash talab etiladi. Xalq ustalari qadimdan qo’llab kelayotgan jami naqshlar tabiat hamda voqyelikning shartli tasviri bo’lishiga qaramasdan o’ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o’zidan olingan. O’simliklar faqat bir tomonga qarab o’sadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o’sayotgandek tuyuladi, lekin novdadan barg bo’lib, bir tomonlama yo’nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshda o’z aksini topgan. Usta chizadigan naqsh shunchaki qog’oz betini to’ldirish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iboratdir. Atrof-muhit, tabiatda mavjud bo’lgan tabiiy shakllarni qayta ishlash, ya’ni stilizasiyalash yo’llarini

bilish, undan samarali foydalana olishni puxta o’zlashtirish badiiy naqsh ishlash jarayonida o’quvchilarga juda qo’l keladi.



T **1-rasm**. Tabiat shakllarining uslubga keltirilishi (stilizasiya)

Ta’kidlaganimizdek, tabiatda uchraydigan o’simliklar, hayvonot dunyosi, uy-ro’zg’or buyumlarini tabiiy ko’rinishdan ancha soddalashtirib, eng ixcham ko’rinishlarda tasvirlashga stilizasiyalash deyiladi. Naqsh chizishni o’rganuvchilar ana shu usulni batafsil tushungan holda egallab olishlari lozim. Chunki ko’pgina naqsh kompozisiyalari ana shu tarzda qayta ishlangan turli-tuman shakllar, tasvirlar yordamida tuziladi.





























# RAMZNING GEOMETRIK QURILISHI



# RAMZNING RANGLI VARIANTI



RAMZNING GEOMETRIK QURILISHI



RAMZNING RANGLI VARIANTI



RAMZNING GEOMETRIK QURILISHI



RAMZNING RANGLI VARIANTI



RAMZNING GEOMETRIK QURILISHI



RAMZNING RANGLI VARIANTI



# RAMZ, NISHON YARATISH

## Tabiat obyektlarini stilizatsiyalash

Obyektning rangli ko'rinishi



Obyektning grafik ko'rinishi



Obyektning chiziqli ko'rinishi



Ramzning geometrik qurilishi



Ramzning grafik yechimi



Ramzni emblemada qo'llash




*Bajardi: 101-D talabasi* ***Hamidova Z.***
*Rahbarlar:* ***Jonuzoqov A.E., To'g'izov Sh.***

# RAMZ, NISHON YARATISH

## Tabiat obyektlarini stilizatsiyalash

Obyektning rangli ko’rinishi



Obyektning grafik ko’rinishi



Obyektning chiziqli ko’rinishi



Ramzning geometrik qurilishi



Ramzning grafik yechimi



Ramzning rangli varianti



*Bajardi: 101-D talabasi* ***Nizamov X.***
*Rahbarlar:* ***Jonuzoqov A.E., To’g’izov Sh.***


RAMZ, NISHON YARATISH
Tabiat obyektlarini stilizatsiyalash
Obyektning rangli ko'rinishi
Obyektning tonal ko'rinishi
Obyektning chiziqli ko'rinishi
Ramzning geometrik qurilishi
Ramzning rangli yechimi
Ramzning relyefli yechimi
Bajardi: 101-D talabasi To'xtamuradov A.
Rahbarlar: Jonuzoqov A.E., To'g'izov Sh.

# RAMZ, NISHON YARATISH

## Tabiat obyektlarini stilizatsiyalash

Obyektning rangli ko'rinishi



Obyektning tonal ko'rinishi



Obyektning chiziqli ko'rinishi



Ramzning geometrik qurilishi



Ramzning grafik yechimi



Ramzning relyefli yechimi



*Bajardi: 101-D talabasi* ***Yorqulov A.***
*Rahbarlar:* ***Jonuzoqov A.E., To'g'izov Sh.***

# RAMZ, NISHON YARATISH

## Tabiat obyektlarini stilizatsiyalash

Obyektning rangli ko'rinish i



Obyektning grafik ko'rinishi



Obyektning chiziqli ko'rinishi



Ramzning geometrik qurilishi



Ramzning grafik yechimi



Ramzni relyefli yechimi



*Bajardi: 101-D talabasi* ***Yunusova K.***
*Rahbarlar:* ***Jonuzoqov A.E., To'g'izov Sh.***


СТИЛИЗАЦИЯ


STILIZATSIYA


STILIZATSIYA









## SAVOLLAR

1. Stilizatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Stilizatsiyaning qo'llanilish sohalarini aytib bering.
3. Firma belgilarini ta'riflab bering.
4. Tovar belgilarini ta'riflab bering.
5. Emblemalar nima va uning qo'llanilishi haqida so'zlab bering.
6. Savdo belgilari haqida tushuncha bering.
7. Firma belgilariga qanday talablar qo'yiladi?
8. Grafik belgilarga qo'yiladigan talablarni aytib bering.
9. Firma belgilarini yaratishda rangning qo'llanilishi.
10. Stilizatsiyaga qo'yiladigan talablarni aytib bering.
11. Siluet deganda nimani tushunasiz?
12. Siluet bilan stilizatsiya orasida qanday farq bor? Misollar keltiring.
13. Sanoat grafikasi deganda nimani tushunasiz?
14. Obraz tushunchasiga ta'rif bering.
15. Original yechim nima?
16. Kompozitsion uslub nima?
17. Kompozitsion qonun deganda nimani tushunasiz?
18. Logotip so'ziga ta'rif bering.
19. Piktogramma nima? Misollar keltiring.
20. Qaysi ranglar simvolik izohga ega?
21. Arxitekturaviy grafika turlarini sanab bering?
22. Geometrik shakllar haqida so'zlab bering?
23. Shakllarni geometrik asoslashga misollar keltiring.
24. Amaliy san'atning qaysi turlarida stilizatsiya qo'llaniladi?
25. Logotipga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering?
26. Tabiatning qaysi elementlari naqshda stilizatsiya holatida uchraydi?
27. Grafik dizaynda ranglar qaysi tartibda qo'llaniladi.
28. Stilizatsiya elementlari qo'llanilgan jahonga mashhur firma belgilarini sanab bering.
29. Stilizatsiyani tasvirlashda grafikaning qaysi turlaridan foydalangan ma'qul.
30. Logotipning turlarini so'zlab bering.